

EKSPERIMENTAL ATEROSKLEROZDA O'PKADAGI MORFOLOGIK O'ZGARISHLARNING TURLI XAVF OMILLARI TA'SIRIDA RIVOJLANISHINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Karimov Akmal Raxmonovich

*Abu Ali Ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti,
A.Navoiy ko'chasi, Buxoro, O'zbekiston.*

Annotatsiya. Hozirgi kunda jahonda o'pka patologiyalari orasida o'pkaning surunkali obstruktiv kasalliklari dunyo miqyosida o'limning to'rtinchi asosiy sababi bo'lib, 2021 yilda 3,5 million kishining hayotiga zomin bo'ldi, bu butun dunyo bo'ylab o'limning taxminan 5 foizini tashkil qiladi. Ateroskleroz kasalligida o'pka to'qimasidagi o'zgarishlarni o'rganish shubhasiz zamonaviy morfologiyaning dolzarb muammolaridan biridir. Ateroskleroz tizimli jarayondir, shuning uchun tananing bir qismida zarar aniqlansa, aterosklerozning boshqa sohalarda, shu jumladan o'pkada rivojlanish ehtimoli juda yuqori. Aterosklerozda tizimli kasallik sifatida o'pkadagi o'zgarishlar aterosklerotik pilakchalarning shakllanishi tufayli o'pka arteriyalarining torayishi sifatida namoyon bo'lishi mumkin, bu esa funktsiyaning buzilishiga va nafas yetishmovchiligi kabi belgilarning rivojlanishiga olib keladi.

Kalit so'zlar: ateroskleroz, o'pka, oksidlanish stressi, morfologiya, morfometriya.

Ateroskleroz, surunkali immunomodulyatsion, o'rta va yirik kalibrli arteriyalarning multifokal va immunoyallig'lanishli shikastlanishi bilan kechadigan patologik jarayon bo'lib, butun dunyo bo'ylab kasallanish va o'limning asosiy sababi hisoblanadi. Gipertenziya, giperkolesterolemiya va chekish kabi ma'lum xavf omillari endotelial disfunktsiyani, lipoproteinlarning oksidlanishini, erkin kislorod radikalini shakllantirishni va leykotsitlar migratsiyasini rag'batlantiradigan tizimli muhitni yaratadi. Tomir devorida oksidlangan lipoproteinlarning to'planishi natijasida lipid chiziqlari paydo bo'ladi. Makrofaglar endoteliy bo'ylab ko'chib o'tadi va lipidga boy oqsillarni fagotsitozlaydi. Makrofaglarda yuqori hujayra ichidagi xolesterin miqdori hujayra o'limiga olib keladi. Aterosklerozda surunkali gipoksiya rivojlanadi. Oksidlanish stressi o'pkaning surunkali obstruktiv kasalligi va yurak-qon tomir kasalliklari o'rtasidagi patogenetik munosabatlarning yana bir muhim aloqasi hisoblanadi. Oksidlanish stressi ateroskleroz patogenezida, ayniqsa uning endotelial funktsiyaga salbiy ta'sirida muhim rol o'ynashi aniqlangan. Reaktiv kislorod turlari hujayra membranalariga zarar yetkazadi va endotelial hujayralarning endogen vasoaktiv vositachilari bilan o'zaro ta'sir qiladi, bu esa endotelial disfunktsiyani keltirib chiqaradi. Reaktiv kislorod turlari, shuningdek, oksidlangan lipoproteinlarning hosil

bo'lishiga olib keladigan lipid peroksidlanishini tezlashtiradi - qon tomir devorlarining shikastlanishining rivojlanishining asosiy omili, qon tomir tonusining buzilishi bilan birga, yallig'lanish reaksiyasining rivojlanishi, subintimal bo'shliq leykotsitlar migratsiyasiga yordam beradigan sharoitlarni yaratadi.

O'pkaning surunkali obstruktiv kasalligi dunyo miqyosida o'limning to'rtinchi asosiy sababi bo'lib, yurak-qon tomir kasalliklari, xavfli o'smalar va shikastlanishlardan keying o'rinda turadi. JSST ma'lumotlariga ko'ra, 40 yoshdan oshgan odamlarda o'pkaning surunkali obstruktiv kasalligining global tarqalishi o'rtacha 10,1% ni tashkil qiladi (erkaklarda 11,8% va ayollarda 8,5%). O'pkaning surunkali obstruktiv kasalligi - bu, asosan, periferik nafas olish yo'llari va o'pka parenximasini (emfizema rivojlanishi bilan) ta'sir qiluvchi, qisman qaytariladigan, progressiv bronxial obstruktsiya va progressiv surunkali nafas yetishmovchiligi bilan tavsiflangan, nafas olish tizimining atrof-muhit bilan bog'liq surunkali yallig'lanish kasalligi. Kasallikka moyil shaxslarda rivojlanadi va yo'tal, balg'am ishlab chiqarish va nafas qisilishi kuchayishi bilan tavsiflanadi. U barqaror progressiv kechish xususiyatiga ega, natijada surunkali nafas etishmovchiligi va o'pka-yurak kasalligiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- вагимян А. А. и др. Атеросклероз и воспаление-путь от патогенеза к терапии: обзор современного состояния проблемы (часть 1) // . 2025. Бюллетень Сибирской медицины. – 2025.
2. Бондаренко Н. Н. и др. Молекулярно-клеточные механизмы ответа организма на гипоксию //Ульяновский медико-биологический журнал. – 2023. – №. 2. – С. 6-29.
 3. Гаранин А. А. Биомеханика сердечно-сосудистой системы и функция эндотелия у мужчин с факторами риска атеросклероза: дис. – Самарский государственный медицинский университет, 2016.
 4. Насыров Р. А. и др. Роль гладкомышечной и эндотелиальной клетки в развитии атеросклероза //Международный журнал гуманитарных и естественных наук. – 2025. – №. 3-1 (102). – С. 87-92.
 5. Замотаева М. Н. и др. Исследование влияния растительных комплексов на биохимические показатели и морфологическую картину органов и тканей при экспериментальном атеросклерозе //Известия высших учебных заведений. Поволжский регион. Медицинские науки. – 2025. – №. 2 (74). – С. 145-153.